



BO'LG'USI MUSIQA O'QITUVCHILARIDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Qobilova E'zozxon Bakirovna,

Qo'qon davlat universiteti professori,

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1563>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 8

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kasbiy identitet, pedagogik identitet, musiqa ta'limi, professional o'zlik, kompetensiya, refleksiya, pedagogik faoliyat, kasbiy o'zlik, kreativlik, ilmiy-nazariy tahlil, pedagog shaxsi, musiqiy ta'lim, ma'naviyat

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Identitet tushunchasining psixologik va pedagogik talqinlari yoritilib, musiqa ta'limi jarayonida kasbiy o'zlikni shakllantirish omillari, mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari asosida kasbiy identitetni rivojlantirishning metodik yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi. Mazkur jarayonda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining shaxsiy, ijodiy va kasbiy sifatlarini uyg'un rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Shuningdek, refleksiya, o'z-o'zini anglash, pedagogik faoliyatga motivatsiya va kasbiy qadriyatlarining shakllanishi identitet rivojining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar hamda amaliy faoliyat orqali kasbiy-pedagogik identitetni mustahkamlash imkoniyatlari ochib beriladi.

Ushbu maqolada bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Identitet tushunchasining psixologik va pedagogik talqinlari yoritilib, musiqa ta'limi jarayonida kasbiy o'zlikni shakllantirish omillari, mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari asosida kasbiy identitetni rivojlantirishning metodik yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi. Mazkur jarayonda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining shaxsiy, ijodiy va kasbiy sifatlarini uyg'un rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Shuningdek, refleksiya, o'z-o'zini anglash, pedagogik faoliyatga motivatsiya va kasbiy qadriyatlarining shakllanishi identitet rivojining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar hamda amaliy faoliyat orqali kasbiy-pedagogik identitetni mustahkamlash imkoniyatlari ochib beriladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 8

KEYWORDS

professional identity, pedagogical identity, music education, professional selfhood, competence, reflection, pedagogical activity, professional self-concept, creativity, scientific-theoretical analysis, pedagogical personality, music teaching, morality

ANNOTATION

This article analyzes the scientific-theoretical foundations of the formation of professional-pedagogical identity in future music teachers. The psychological and pedagogical interpretations of the concept of identity are explored, and the factors, mechanisms, and pedagogical conditions for developing professional selfhood in the music education process are substantiated. In addition, methodological approaches to developing professional identity based on modern educational concepts are outlined. In this process, it is emphasized that the harmonious development of personal, creative, and professional qualities of future music teachers is of great importance. Additionally, reflection, self-awareness, motivation for pedagogical activity, and the formation of professional values are considered as key components of identity development. Within the framework of the research, opportunities for strengthening professional-pedagogical identity through innovative approaches, interactive methods, and practical activities in music education are revealed.

As a result, it is scientifically substantiated that the effective formation of professional-pedagogical identity in future music teachers is an important factor in improving the quality of education and the system of training pedagogical personnel.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar ortib borayotgan sharoitda bo'lg'usi o'qituvchilarda barqaror kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, musiqa o'qituvchisi faoliyati ijodiylik, estetik tafakkur va emotsional ta'sirchanlik bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli uning kasbiy o'zligini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shaxs va kasbiy o'zlik tushunchalarini ilmiy asoslashda sharq mutaffakkiri Abu Nasr al-Farobiyning pedagogik va ma'naviy tafakkuri muhim ahamiyatga ega. Farobiy shaxsning kamoloti va kasbiy faoliyati uni shakllantiruvchi ilm, axloq va estetik qadriyatlarining uyg'unligida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning nazariyasi bo'yicha, ideal pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyachi sifatida ham rivojlanishi lozim hamda ta'lim, axloqiy fazilatlar va ma'naviy yetuklik masalalari falsafiy darajada yoritiladi. Abu Nasr al-Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonning aqliy bilimlari va axloqiy fazilatlarini birlashtirgan holda "yaxshi va foydali inson"ni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [1].

Shu nuqta nazardan, bo'lg'usi musiqa o'qituvchisida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish shaxsning estetik, ma'naviy va pedagogik komponentlarini uyg'unlashtirish bilan bog'liq jarayon sifatida ko'riladi. Pedagogik tadqiqotlarda kasbiy identitet o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan ongli munosabati, kasbiy qadriyatlarini qabul qilishi va pedagogik faoliyatda o'z o'rnini anglay olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi,

uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etadi. O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajgini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs deb bilaman. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, ayniqsa, musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik identitetni uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofodagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy-pedagogik identiteti va pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zini munosib hissasini qo'shishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Mazkur muammoning nazariy asoslarini tahlil qilishda avvalo "identitet" tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy ishlarga murojaat qilinadi.

O'zbek olimlaridan N. Jo'rayev identitetni shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini anglash jarayoni sifatida talqin qilib, uning shakllanishida ijtimoiy tajriba va ta'lim tizimining muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [2, 45-b.]. Shunga yaqin yondashuvni B. Xodjayev ham ilgari surib, kasbiy

identitetni pedagog shaxsining kasbiy faoliyatga moslashuvi va o'zini shu faoliyat subyekti sifatida anglash darajasi bilan bog'laydi [3, 78-b.]. Ushbu qarashlar identitetning ijtimoiy va faoliyatga bog'liq jihatlarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir.

Pedagogik identitet masalasi R. Mavlonova tadqiqotlarida ham keng yoritilib, u pedagog shaxsining kasbiy qadriyatlarini, bilim va ko'nikmalari hamda shaxsiy fazilatlarini uyg'unligi sifatida talqin etiladi [4, 112-b.]. Muallif pedagogik identitetni shakllantirishda ta'lim jarayonining mazmuni va metodlariga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv kasbiy identitetni faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy faoliyat orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Musiqqa ta'limi kontekstida mazkur muammo A. Qodirov va D. Karimova ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A. Qodirov musiqqa o'qituvchisining kasbiy shakllanishida ijodiy yondashuv va estetik didning o'rni muhimligini ta'kidlaydi [5, 64-b.]. D. Karimova esa musiqqa ta'limi jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy o'zligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab beradi [6, 91-b.]. Ushbu tadqiqotlar musiqqa o'qituvchilariga xos bo'lgan identitetning o'ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda kasbiy-pedagogik identitet shaxsning motivatsion, kognitiv va faoliyatli komponentlari birligi sifatida qaraladi. Biroq, musiqqa ta'limi yo'nalishida bu masalaning kompleks, tizimli yondashuv asosida yetarli darajada o'rganilmaganligi kuzatiladi. Xususan, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya va pedagogik refleksiya uyg'unligida kasbiy identitetni shakllantirish masalasi chuqurroq tadqiq etishni talab etadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish ko'p omilli, murakkab jarayon bo'lib, u shaxsiy sifatlar, kasbiy kompetensiyalar, ijodiy faoliyat va pedagogik muhitning o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi. Mazkur holat esa tadqiqot doirasida kompleks metodik yondashuvni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish muammosi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda aksiologik (qadriyatli) yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar orqali bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy o'zligini anglash, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayoni tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, ish davomida nazariy metodlar – ilmiy adabiyotdani tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabilardan foydalanildi.

Natijalar. Ma'lumki kasbiy identitet - bu shaxsning kasbiy faoliyat kontekstida o'zini anglash, professional qadriyatlar, kompetensiyalar va rollarni qabul qilishni ifodalaydi. Mazkur tadqiqot bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar va shaxs rivoji konsepsiyalariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy tayanchi sifatida shaxs kamolotini ilm, axloq va estetik uyg'unlik asosida talqin etuvchi Abu Nasr al-Farobiy pedagogik qarashlari qabul qilindi. Ushbu yondashuvga ko'ra, pedagogning kasbiy yetukligi uning bilim darajasi bilan bog'liq emas, balki ma'naviy va estetik kamoloti bilan ham belgilanadi. Tadqiqot nazariy-konseptual model ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Kasbiy identitet nazariyalarining tizimli tahlilini Abu Nasr al-Farobiyning falsafiy va pedagogik qarashlari bilan taqqoslasak:

- Al-Farobiy shaxsning aql, axloq va ijtimoiy qobiliyatlari orqali mukammallashishi g'oyasini ilgari surgan. U har bir insonning maqsadga yo'naltirilgan intilishlari va axloqiy qadriyatlar orqali shaxsiy va kasbiy xususiyatlar rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Musiqqa o'qituvchisi yoki pedagog faoliyatida shaxsiy qadriyatlar (masalan, sabr-toqat, adolat, ijodkorlik) uning kasbiy identitetini shakllantirishda markaziy omil bo'ladi;

- Abu Nasr Al-Farobiy fikricha, shaxs aql va ilm orqali o'z kasbiy mahoratini rivojlantiradi, shuningdek, ijtimoiy vazifalarini bajarish orqali kasbiy rolini anglaydi;

- Abu Nasr Al-Farobiy pedagogik ta'limni shaxsiy rivojlanish va jamiyat manfaatlarini bilan uzviy bog'liq deb hisoblagan. Shu nuqtai nazardan, musiqqa o'qituvchisi o'z kasbiy orientatsiyasini shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, professional identitetni shakllantiradi;

- Shaxsiy qadriyatlar (axloq, ijodkorlik) + kasbiy kompetensiya (metodik va musiqiy bilim) + ijtimoiy rol (o'quvchilar, jamiyat bilan munosabat) → kasbiy identitetning psixologik rivojlanishi. Shaxsiy va kasbiy mukammallikka intilish identitet shakllanishining asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. Kasbiy identitet nazariyasi shaxsning kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va professional faoliyat samaradorligini tushinishda tizimli asos yaratadi.

Musiqqa o'qituvchisi kasbiy faoliyati nafaqat musiqqa fanini o'qitishdan iborat, balki pedagogik, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Shu nuqtai nazardan, uning professional xususiyatlari bir necha asosiy komponentlarga bo'linadi: Pedagogik kompetensiya; Musiqqa o'qituvchisi uchun pedagogik kompetensiya dars jarayonini samarali tashkil etish va talabalarga bilim berish qobiliyatini anglatadi. Bu quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi: Dars rejalashtirish va metodik tayyorgarlik – o'quv dasturiga mos ravishda musiqiy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish. O'quvchilar bilan kommunikatsiya – turli yoshdagi va qobiliyatdagi o'quvchilarni motivatsiya qilish, ularning ehtiyojlarini hisobga olish. Baholash va refleksiya – o'quvchilarning rivojlanishini baholash va o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilinib, kasbiy identitetning pedagogik va psixologik talqinlari umumlashtirildi. Musiqqa ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati hamda estetik tajribaning ta'lim jarayonidagi o'rni konseptual modellashtirish asosida izohlandi. Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarining integratsiyasiga tayanadi. Nazariy tahlillar bo'lg'usi musiqqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik identiteti murakkab va ko'p qirrali tizim ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tizim shaxsning kasbiy bilimlari, pedagogik qadriyatlarini, ijodiy faoliyati hamda refleksiv o'zini anglash jarayonining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Musiqqa pedagogining kasbiy o'zligi nafaqat pedagogik kompetensiyalar, balki estetik tafakkur, badiiy idrok va emosional sezgirlik bilan ham belgilanadi. Kasbiy identitet shakllanishi pedagogik ijtimoiylashuv, estetik tajriba va refleksiv faoliyatning uzviy birligida yuzaga keladi. Musiqqa ta'limi jarayonida ijodiy faoliyat, sahna amaliyoti, musiqiy interpretatsiya va pedagogik muloqot o'qituvchining kasbiy o'zligini mustahkamlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kasbiy qadriyatlarini ongli qabul qilish va pedagogik faoliyat mazmunini shaxsiy ma'nolar tizimi bilan uyg'unlashtirish identitet rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy-pedagogik identitet samarali shakllanishi uchun ta'lim jarayonida estetik jihatdan boy muhit, refleksiv o'qitish texnologiyalari hamda ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tayyorgarlik va amaliy ijrochilik tajribasining integratsiyasi bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy o'zligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar musiqqa o'qituvchisining kasbiy identiteti umumiy pedagogik identitetdan o'zining estetik va ijodiy yo'nalganligi bilan farqlanishini ko'rsatadi. Musiqqa pedagogikasida kasbiy o'zlik faqat bilim va ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning madaniy va ma'naviy o'zini anglash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois identitetni shakllantirish jarayoni shaxs rivojlanishining uzluksiz va dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida pedagogning kasbiy identiteti professional tayyorgarlikning markaziy natijasi sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv xalqaro ta'lim strategiyalarida ham aks etgan bo'lib, pedagog shaxsining refleksiv rivoji va kasbiy o'zini anglash jarayoni ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Kasbiy identitetni shakllantirish jarayoni dinamik rivojlanish tizimi bo'lib, u quyidagi omillar ta'sirida takomillashadi: professional ta'lim sifati, pedagogik amaliyot mazmuni, madaniy-estetik muhit, kasbiy qadriyatlar tizimi, uzluksiz kasbiy rivojlanish. Natijalar zamonaviy ta'lim strategiyalari bilan uyg'un holda talqin qilindi. Xususan, XXI asr pedagogini tayyorlash konsepsiyalari kasbiy identitetni pedagogik tayyorgarlikning markaziy natijasi sifatida belgilaydi. Tadqiqot natijalari musiqqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida estetik tarbiya, ijodiy faoliyat va refleksiv pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Kasbiy identitet shaxsiy tajriba, pedagogik faoliyat va madaniy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Xulosa. Kasbiy-pedagogik identitet – bu shaxsning kasbiy faoliyat doirasida o'zini anglashi, professional qadriyatlar, kompetensiyalar va pedagogik rollarni qabul qilishidir. Bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilar uchun bu identitetning shakllanishi nafaqat akademik bilim, balki shaxsiy va ijtimoiy tajriba orqali amalga oshadi. O'zbek pedagogik an'analari va mentaliteti bo'yicha shaxsiy hurmat, madaniy qadriyatlarini e'zozlash, hamda ijodiy va ma'naviy rivojlanishga e'tibor berish kasbiy identitetning muhim omilidir. Musiqqa o'qituvchisi kasbiy shaxs sifatida, avvalo, o'zining ichki intilishlari va axloqiy qadriyatlarini pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishi zarur. Al-Farobiy pedagogik falsafasi esa shaxsiy aql, axloq va ijtimoiy mas'uliyat orqali professional mukammallikka erishishni asosiy prinsip sifatida oladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilarda identitet shakllanishi shaxsiy qadriyat, metodik mahorat va ijtimoiy mas'uliyatni integratsiyalash orqali sodir bo'ladi. Pedagogik komponent bo'yicha musiqqa o'qituvchisi darslarni rejalashtirish, metodik vositalardan foydalanish va

o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga, musiqa nazariyasi va amaliy ko'nikmalarini birlashtirgan holda dars jarayonini samarali tashkil etish kasbiy identitetning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaxsiy-professional komponent esa bo'lg'usi o'qituvchining sabr-toqat, mas'uliyat, ijodiy intilish va o'zini tahlil qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. O'zbek madaniyatida o'qituvchi shaxsiy hurmat va jamiyat oldidagi mas'uliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu uning kasbiy identitetini mustahkamlaydi. Ijtimoiy-professional komponent bo'yicha o'qituvchi jamiyat va professional hamjamiyat bilan integratsiya qilinadi. Bu esa hamkasblar bilan hamkorlik, musiqiy tadbir va loyihalarda ishtirok etish orqali identitetning amaliy jihatlarini rivojlantiradi.

O'zbek mentalitetiga xos jihatlar - hurmat, hamjihatlik va milliy madaniyatni qadrlash – bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, talabalarga madaniy merosni yetkazish va ularni ma'naviy-estetik rivojlantirish identitetning maqsadli yo'nalishidir. Shakllanish mexanizmlari esa bir nechta bosqichda amalga oshadi: Ichki motivatsiya va shaxsiy intilishlar orqali shakllanish, ya'ni musiqa o'qituvchisining kasbiy istaklari va qadriyatlarini. Ta'lim va amaliy tajriba orqali shakllanish, ya'ni dars jarayonida, metodik mashg'ulotlar va stajlarda professional ko'nikmalarni rivojlantirish. Ijtimoiy integratsiya orqali shakllanish, ya'ni hamkasblar va jamiyat bilan muloqot orqali professional identitetni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Fozil odamlar shahri" (Toshkent: "Xalq merosi" nashriyoti, 1993)
2. Jo'rayev N. Pedagogik tafakkur va shaxs rivoji. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Xodjayev B. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Qodirov A. Musiqa ta'limi metodikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
6. Karimova D. Interfaol ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
7. Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4.02 (2024): 44-49.
8. Azizxonova, M., and E. Qobilova. "YoSHLARNI MUSIQIY MADANIYATI VA MA'NAVİYATNI SHAKLLANTIRISHDA

mustahkamlash. Refleksiya va o'zini baholash orqali shakllanish, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish, muvaffaqiyat va xatolardan xulosa chiqarish orqali identitetni chuqurlashtirish. Shu tarzda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilar o'z shaxsiy qadriyatlarini, pedagogik mahoratini va ijtimoiy mas'uliyatini uyg'unlashtirib, professional identitetni shakllantiradilar. Bu jarayon nafaqat bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, balki o'quvchilarda estetik, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish bilan ham bog'liq. Shuningdek, o'zbek pedagogik an'analari va musiqa madaniyati bu jarayonda asosiy ilhom manbai bo'lib, kasbiy-pedagogik identitetning milliy va estetik komponentlarini boyitadi. Shu bilan birga, identitet shakllanishi zamonaviy metod va innovatsiyalar bilan uyg'unlashganda, musiqa o'qituvchisining professional faoliyati yanada samarali bo'ladi. Natijada, bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitet shakllanishi - psixologik, pedagogik va ijtimoiy jarayonlarning integratsiyasi bo'lib, shaxsiy qadriyatlar, kasbiy mahorat va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirish orqali amalga oshadi. Bu esa nafaqat o'qituvchining professional rivojlanishiga, balki o'quvchilarning estetik va madaniy tarbiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kasb tanlash va tanlagan kasbidan faxrlanishni bugun bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarda shakllantirish uchun eng avvalo oliy ta'lim muassasasida dars beradigan o'qituvchining o'zi kasbi bilan o'rnatilgan bo'la olishi zarur va bu muhim.

MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI." Oriental Art and Culture 3 (2022): 51-57.

9. Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 291-295.

10. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA'LIMDA MUSIQA O'QITISHNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 99-100.

11. Rasulova H. N. "Pedagogical opportunities of applying clil technology in music education" Noyabr. (2025) <https://worldlyjournals.com/index.php/> 655-660 bet.

12. Rasulova Homidabonu Nu'monxon qizi "Musiqa nazariyasini clil (content and language integrated learning) texnologiyasi orqali o'qitish: metodik yondashuvlar va amaliyot" (2025) <https://doi.org/10.5281/zenodo.18154327> 11-13